



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№8(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 576 sahifa,
3-avgust, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Sun'iy intellekt muhitida o'sib kelayotgan Alfa avlodining shaxsiy va psixik rivojlanishi	10
Jo'rayeva Dilfuza Abdug'aniyevna	
Teng yonli uchburchak xossalari va kesmaning o'rta perpendikulyari xossalardan foydalangan holda masalalar yechish	13
Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li	
Xiva xonligining siyosiy boshqaruv modeli: Buxoro va Qo'qon xonliklari bilan qiyosiy tahlili.....	17
Mutallibjonov Boburmirzo	
Boshlang'ich sinfda informatika fanini o'qitish metodikasi	26
Nosirova Feruza Baxadir qizi	
Funksional savodxonlik asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini professional rivojlantirishning strukturaviy-faoliyatli modeli.....	30
Gafurova Mahfuza Abbosovna	
Mutafakkirlar asarlarida bolalar faolligini shakllantirishda o'yinlardan foydalanishning yoritilishi	35
Ravshanova Uldona Narziboyevna	
Ijtimoiy-madaniy qadriyatlar variatsiyasi sharoitida talabalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish mazmuni	39
Vorisova Barnoxon Olimjon qizi	
Huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya integratsiyasi orqali yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish	43
Habibjonov Izzatbek Dilshodjon o'g'li	
Bo'lajak o'qituvchilarning tanqidiy va refleksiv tafakkurini rivojlantirishda antfragil yondashuvning o'rni.....	51
G'ulomjonova Ziyodaxon A'zamjon qizi	
Badiy adabiyotning yoshlar tarbiyasidagi didaktik imkoniyatlari	57
Irisboyeva Xotiraxon Utbasarovna	
Talabalarining o'quv amaliyoti jarayonida kasbiy mobilligini rivojlantirishda dual ta'limga asoslangan metodikani takomillashtirish	61
G'ofurov To'liqinjon	
Didactic Opportunities of Content and Language Integrated Learning (CLIL) Technology in English Language Teaching	67
Ismailova Aziza Dilshodovna	
Фольклорные источники в историко-географическом изучении памятников Устюрта.....	72
Канаатов Есимкан	
Xorijiy davlatlar tajribasida o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish amaliyoti.....	76
Abdullayev Amirulla Xazratovich	
Algoritmik faollikni rivojlantirishning zamonaviy metodik yondashuvi	81
Pardayeva Kamola Sultonovna	
Sun'iy intellekt va startap ekotizimi asosida talabalarining tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish	86
Imomaliyev Quvvat Choriyevich	
Maktab ta'limida o'qitish sifatini baholashning ko'p tarmoqli raqamli-diyagnostik tizimini joriy etish va boshqarish	91
Nurmetov Tursunbek Kenjayevich	
Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish	96
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining malakaviy va pedagogik amaliyotlari uzviyligini ta'minlashning metodik modeli	99
Mardonov Maqsudbek Maxmudovich	
Nogironligi bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatishning nazariy-metodologik asoslari	103
Umarova Umidaxon Ibaydullayevna	



Chizmachilik darslarida animatsiyali modellarni qo'llashning pedagogik asoslari	108
<i>Xo'janiyozov Shokir Rustamovich</i>	
Fanlararo aloqadorlik asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish metodikasi va uning eksperimental samaradorligi	114
<i>Isroilova E'zoza Akmal qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida ingliz tilini o'qitishda veb-kvestlar va raqamli keyslarni samarali qo'llash usullari	119
<i>Shermatova Ra'no O'ktam qizi, Baxodirova Gulnoz Kamalovna</i>	
Xalq og'zaki ijodi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini takomillashtirish texnologiyalari	124
<i>Abduraximova Muxabbat Allayevna</i>	
Bo'lajak fizika o'qituvchilarini nanotexnologiya sohasidagi bilimlarni taqdim etishga va o'qitishga tayyorlash metodikasi	129
<i>Sottarov Abduvali Umirqulovich</i>	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning raqamli tafakkurini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish	133
<i>Nuraliyeva Feruza Abdusalim qizi</i>	
Emotsional intellekt va raqamli kommunikatsiya: yoshlar psixologiyasida zamonaviy tendensiyalar	137
<i>Qahharov Nuriddin Sherbek o'g'li</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda "o'quv burnout" (o'qishga nisbatan charchash va sovish) holatining oldini olishda motivatsion pedagogik texnologiyalar	142
<i>Babajanova Gulmira Muratbayevna</i>	
Linguopragmatic Errors in Artificial Intelligence-Generated Translations	147
<i>Aytmuxamedova Durdona Jasur qizi</i>	
Клинические особенности аллергодерматозов у лиц, проживающих в Ташкентской области	153
<i>Абдуллаева Ф. Б., Саипова Н. С.</i>	
Tyutorlik faoliyatining pedagogik ahamiyati	160
<i>Ashirova Gulnora Xayrullayevna</i>	
Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbga yo'naltirish metodikasini takomillashtirish	164
<i>Nurmuratova Iroda Nuriddinovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashda diqqat yetishmasligi va giperfaollik: mnemotexnik korreksiya	169
<i>Egamberdiyeva Xuriyat Egamberdiyevna, Kaxxarova Ozoda Abdimo'minovna</i>	
The Historical Development of Translation	173
<i>Sharopova Gulnoza Odil qizi</i>	
Integratsiya jarayonlarini samarali boshqarishga yo'naltirilgan metodik tizim	176
<i>L. T. Xudaybergenova</i>	
Multimodal matnlarni tanlash va dalillarga asoslangan o'quv topshiriqlari metodikasini ishlab chiqish	180
<i>G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi</i>	
Bo'lajak tibbiyot xodimlarining diagnostik kompetensiyalarini shakllantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'rni: ilmiy adabiyotlar sharhi	186
<i>Xalimova S. A.</i>	
The Role and Opportunities of Artificial Intelligence (AI) in the Management of Educational Institutions	191
<i>Abduqahorova Lobar Oybekovna</i>	
Malaka oshirish jarayonida maktab direktorlarining mediakompetentligini rivojlantirishning tashkiliy-boshqaruv mexanizmi	197
<i>Xidirova Maftuna Ilhom qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya berishda STEAM va an'anaviy usullarning qiyosiy tahlili	205
<i>Boltayeva Nasiba Ilhom qizi</i>	

Kasb-hunar ta'limida elektromobillar va robototexnika yo'nalishlarini rivojlantirish: xalqaro hamkorlik tajribasi va "2+1" dual ta'lim modeli.....	209
<i>Dushanov Nuriddin Qo'ldoshovich, Suvonov Murodjon Abdurahmon o'g'li, Ibragimova Dinara Rustam qizi, Karimova Oygul Ro'ziyevna, Avliyoqulov Muxammad Mustafoyevich</i>	
Multimodal matnlarni tanlash va dalillarga asoslangan o'quv topshiriqlarining metodikasini ishlab chiqish ...	212
<i>G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda "ijodiy faoliyat" va "kreativlik" konseptlarining nazariy-metodologik interpretatsiyasi...	218
<i>Komila Aytmuratova</i>	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi asosida rivojlantirishga doir mashqlar tipologiyasining samaradorligi.....	222
<i>Maxmudova Feruza Salimjonovna</i>	
O'zbek va rus nasrida oilaviy munosabatlarning badiiy-psixologik talqini	227
<i>Qurbonova Malika Toxir qizi</i>	
O'quv-biluv kompetensiyasining nazariy asoslari va zamonaviy pedagogik yondashuvlar	230
<i>Saydaxmedova Barno Batirovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matematik tayyorgarligi tarkibi: TIMSS va PISA xalqaro baholash dasturlari asosidagi nazariy tahlil	235
<i>Abdusattarova Zaynab</i>	
Fizikani o'qitishda barqaror taraqqiyot tushunchalarini rivojlantirish: O'zbekiston kontekstida adabiyotlar tahlili.....	243
<i>Avazova Oltin</i>	
Futbolda 11–12 yoshli darvozabonlarni texnik-taktik jihatdan tayyorlashda maxsus mashqlarning ahamiyati	247
<i>Ibragimov Qosimbek Isroil o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanni o'qitish jarayonida sun'iy intellekt yordamida foydalanib nazariy bilimlarni hayotga tatbiq qilib o'rganish metodlari	253
<i>Jo'layeva Munira Choriyevna</i>	
Creativity-Oriented Language Teaching in Karakalpak Folk Pedagogy	256
<i>Khodzhanizayeva Aygul Aytmuratovna</i>	
Bo'lajak pedagoglarda estetik kompetentlikni rivojlantirishning metodik asoslari.....	264
<i>Saidova Dilorom Erkinovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik muammolarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	269
<i>Farhodova Sevara Qo'ziboy qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarida tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari.....	274
<i>Norkulova Jasmina Sodikovna</i>	
Umumta'lim maktablarida matematik kechalar orqali o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish samaradorligi.....	277
<i>Saytniyozov Adham Annamuhomet o'g'li</i>	
Tibbiy va pedagogik ta'lim jarayonida "Case Study" metodini qo'llash orqali talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish	282
<i>Shaymatova Azizaxon Rustambekovna</i>	
Dutor ijrochiligining amaliy-texnik jihatlariga e'tibor qaratish va ushbu jarayonni rivojlantirish	286
<i>Shodiyeva Shahinabonu Shoirjon qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik texnikani shakllantirish texnologiyalari	293
<i>Turimbetova Sveta Muhammedaliyevna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlik menejmentini takomillashtirishda direktor o'rinbosarining roli	297
<i>Xolnazarova Shaxnoza Baxodir qizi</i>	
Адаптивная геймификация в школьном обучении физике	304
<i>Индира Бахадуровна Ерлепесова</i>	
Bo'lajak pedagoglarda qadriyatlar tizimining shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar	309
<i>Taylanova Sh. Z.</i>	



Metakognitiv kompetensiya: mohiyati va mazmuni, tarixiy evolyutsiyasi.....	317
Xasanova Feruza Xurramovna, Abdullayeva G. A.	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy tayyorgarlikni ta'minlovchi refleksiv va motivatsion mexanizmlar	322
Fayziyeva Umida Asadovna	
Arab tilida jumla tuzilishi: ismiy va fe'liy jumalarning nahviy tahlili	328
Quqonboyeva Moxlaroyim Elmurodjon qizi	
"Maugli" asarining didaktik ahamiyati va obrazlar tahlili	333
To'g'onova Dinoraxon Mansurjon qizi	
Jadid taraqqiyparvari Ahmad Zaki Validiyning ijtimoiy-siyosiy faoliyati va uning vatanparvarlik harakatlari...	337
Raximov Azizbek Normurodovich	
Biologiya darslarida kooperativ ta'lim texnologiyasidan foydalanish metodikasi	342
Ibodova Mahfuza Namozovna	
Ta'limni tashkil etishning pedagogik omillari	346
Yuldasheva Nilufar Abdullayevna, Hazratkulova Lobar To'rabek qizi	
5–7 yoshli qizlarda badiiy gimnastika orqali maxsus harakat ko'nikmalarini rivojlantirish	350
Botirova Sayyora Nurullayevna	
Talabalarda grammatik kompetensiyani rivojlantirishning zamonaviy pedagogik yondashuvlari	354
Aymanova Shiyrinay Kamilovna	
Yosh ofitserlarda xizmat rezistentligini belgilovchi ijtimoiy-psixologik determinantlar	357
Rejаметова Irada Ikramshikovna	
Chapaqay o'quvchilarda grafik malakalarni rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari	363
Yusufzoda Shabnami Yunus	
Преимущества использования STEAM технологий в дошкольном образовании.....	368
Садикова Д. Х.	
Sun'iy intellekt bilan ishlash jarayonida o'quvchilarning kognitiv mustaqilligi va metakognitiv nazoratining pedagogik-psixologik determinantlari	371
Saliyeva Muslima Maxsetbay qizi	
Ta'lim jarayonida sun'iy intellekt asosidagi kiberxavfsizlik tizimlarining etik va huquqiy jihatlari o'qitish metodikasi	377
Turanova Aynur Baxtjan qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalar alaliyasini korreksiya qilishda neyrostimulyatsiya hamda logopedik texnologiyalarning kompleks qo'llanilishi.....	381
Axunxodjayeva Dildoraxon G'anixon qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti, oila va mahalla hamkorligi korporativ ta'lim tendensiyasi sifatida	384
Qilichova Marxabo Xudaykulovna	
Informatika fanini innovatsion vositalar bilan o'qitish.....	392
Allaberganova Muyassar, Po'lotova Sevinchoy Arslon qizi	
Jamoat tartibini saqlash xizmatida boshqaruv kompetensiyalarining ijtimoiy-psixologik determinatsiyasi....	397
Mamatxanov Nodirxon Sadridin o'g'li	
Sociolinguistic Variation in English: A Study of Dialects and Accents.....	402
Keldiboyeva Diyora Shuhratilla qizi, Ramazonova Feruzaxon Akbarovna	
Ingliz va o'zbek multimodal diskursida lingvomadaniy ma'noning verbal-vizual vositalar orqali voqelanishi: chog'ishtirma-pragmatik tahlil.....	405
Mo'minova Maftuna Alijonovna	
Long-Term Retention and Pragmatic Use of English Idioms Following Adaptive Instruction: A Longitudinal Follow-Up Study.....	409
Alisher Sidikov Uktamjonovich	
Ta'lim klasteri sharoitida bo'lajak muhandislarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari va metodik modeli	418
Yangiyev Shavkat Norkobulovich	
Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining biologiya fanidan olimpiada masalalarini yechish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	422
Sh. Yu. Abdunabiyeva	

Dual ta'lim modeli sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik muloqot kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	428
Turamuratov Ulug'bek Uraqovich	
Bo'lajak o'qituvchilarni raqamli baholash faoliyatiga tayyorlashning pedagogik modeli	433
Raisov Shamsiddin Rashid o'g'li	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirishda raqamli pedagogik texnologiyalarning samaradorligi	438
Radjapov Aybek Allaberganovich	
Miya falajiga chalingan bolalar bilan qilichbozlik mashg'ulotlarini o'tkazish uchun moslashuvchan dasturni ishlab chiqish va raqamli uslubiy yordam	442
Davranova Maftunabonu Elyorovna	
Maxsus pedagogika yo'nalishi talabalari kasbiy mas'uliyatini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari...	448
Xalimova Ozoda	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlashini raqamli didaktik o'yinlar vositasida rivojlantirish	451
Sabohat Sharofiddinovna Siddiqova	
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirishda simulyatsion texnologiyalarni qo'llash metodikasi	455
Baratova Yulduz	
Talabalar huquqiy madaniyatini yuksaltirishda sun'iy intellektning o'rni	461
Shamsudinova Malika Ulug'bek qizi	
Deviant xulqli o'quvchilarni tarbiyalashning pedagogik-psixologik muammolari va ularning yechimlari.....	464
Usmonov Abdurashid Norbo'tayevich	
Muloqot va uni o'smirlik yoshida rivojlantirish masalalari	470
Orifova Sabot Yakubovna	
O'smirlik davridagi shaxslararo munosabatlarni tadqiq etish metodlari.....	474
Safarova Dilnoza Kuchkarovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining barkamol yosh avlodni shakllantirishda milliy innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni	478
Ibodullayeva Dildora Shukrulla qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligi ahamiyatining rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida tahlili.....	481
Oripova A'lo O'ktam qizi	
Logopediya fanida me'yor tushunchasining zamonaviy talqinlari: nazariy yondashuvlar va metodologik asoslar.....	485
Turg'unboyev Sirojiddin Faxriddinovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ingliz tilida ishonchli muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda zamonaviy pedagogik metodlarning o'rni va amaliy tahlili.....	489
Gulnoza Djurakulova Shavkatovna, Ochildiyeva Shahnoza Avdivohid qizi	
Dual ta'lim sharoitida bo'lajak qishloq xo'jaligi muhandislarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish natijalari	494
Abdullayeva Rohilaxon Ne'matjonovna	
Probatsiya nazoratidagi shaxslarni ijtimoiy moslashtirishda psixologik xizmatning samaradorligi	500
Qayumov Ramazon Zoirjon o'g'li	
Umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish muammolari va yechimlari.....	507
O'rishboyeva Xumora O'rol qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishda innovatsion raqamli texnologiyalar imkoniyatlari	510
Abdulkarimova Rayxona Akmalovna	
Inklyuziv ta'limda subyektlar faoliyatini raqamli tahlil qilishda ma'lumotlar bazasi va monitoring tizimining ahamiyati	515
Dilshodov Abrorjon Dilshodjon o'g'li	



Value Representations in the Family-School-Student System	522
Gulbakhar Orazbayeva	
Gamified Writing Tasks and Their Impact on Learner Motivation and Text Quality	527
Islamova Nilufar Ismail qizi	
Innovatsion ta'lim metodlari va texnologiyalari asosida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida pedagogik liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni	534
Jumanov Lochinbek Habibulla o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida muloqot kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari...	537
Mamazokirova Robiyaxon Muhammadali qizi, Qodirova Buzulayho Turgunovna	
STEAM ta'lim texnologiyasi asosida bo'lajak tarbiyachilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish tizimi	543
To'raqulova Malohat Bahodir qizi	
Hozirgi o'zbek she'riyatida intertekstual talqinlar	547
Ro'ziqulova Dilbar Muzaffar qizi	
Mustaqillik va Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi	551
Erkayev Elmira Temirovich	
Yapon pedagogik tajribasini O'zbekiston oliy ta'lim muhitiga moslashtirishning didaktik shartlari.....	556
Jumanazarova Gullola Yoqubjanovna	
Velosportchilarda irodaviy xususiyatlarning namoyon bo'lishi va ularni rivojlantirishning psixologik jihatlarini	560
Raxmonova Go'zal Bobir qizi	
Migrant talabalarda shaxsiy identifikatsiyani shakllantirishning pedagogik usullari.....	563
Turg'unov Ilxomjon Iqboljon o'g'li	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion usullari ...	567
Ergasheva Go'zal Ruzimurod qizi	
Shaxs liderlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining nazariy asoslari.....	571
Mansurova Lobar Luqmon qizi	

YAPON PEDAGOGIK TAJRIBASINI O'ZBEKISTON OLIIY TA'LIM MUHITIGA MOSLASHTIRISHNING DIDAKTIK SHARTLARI

Jumanazarova Gullola Yoqubjanovna

KIUT Namangan filiali

pedagogika va psixologiya kafedrası dotsenti, PhD

Annotatsiya: Maqolada yapon pedagogik tajribasining O'zbekiston oliy ta'lim muhitiga mexanik ko'chirilishi emas, balki uning didaktik mohiyatini milliy ta'lim maqsadlari, talabalarning ijtimoiy-madaniy xususiyatlari, oliy ta'lim muassasalarining tashkiliy imkoniyatlari va professor-o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi bilan muvofiqlashtirgan holda adaptatsiya qilish muammosi tadqiq etilgan. Yaponiya ta'lim amaliyotida qaror topgan "Lesson Study" (jugyou kenkyuu), "kyouzai kenkyuu", hamkorlikda dars loyihalash, o'quv materialini chuqur didaktik tahlil qilish, talabalar faolligini kuzatish, jamoaviy refleksiya va uzluksiz takomillashtirish tamoyillari O'zbekiston oliy ta'limi nuqtayi nazaridan qiyosiy-pedagogik tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: yapon pedagogik tajribasi, oliy ta'lim, didaktik shart, adaptatsiya, Lesson Study, jugyou kenkyuu, kyouzai kenkyuu, hamkorlikda o'qitish, refleksiya, formativ baholash, pedagogik transfer.

Abstract: The article examines the contextual adaptation of Japanese pedagogical experience to the goals, values, and organizational-didactic characteristics of higher education in Uzbekistan rather than its mechanical transfer. Through comparative pedagogical analysis, it discusses the core principles of Japanese educational practice, including Lesson Study (jugyou kenkyuu), kyouzai kenkyuu, collaborative lesson design, in-depth study of instructional materials, observation of student learning, collective reflection, and continuous improvement.

Key words: Japanese pedagogical experience, higher education, didactic conditions, adaptation, Lesson Study, jugyou kenkyuu, kyouzai kenkyuu, collaborative learning, reflection, formative assessment, pedagogical transfer.

Аннотация: В статье исследуется проблема не механического переноса японского педагогического опыта, а его контекстной адаптации к целям, ценностям и организационно-дидактическим особенностям высшего образования Узбекистана. На основе сравнительно-педагогического анализа раскрыты образовательные принципы, сформировавшиеся в японской практике: Lesson Study (jugyou kenkyuu), kyouzai kenkyuu, совместное проектирование занятия, углублённое исследование учебного материала, наблюдение за учебной деятельностью студентов, коллективная рефлексия и непрерывное совершенствование преподавания. Систематизированы дидактические условия адаптации: целевая и аксиологическая совместимость, предварительная диагностика локального контекста, селективная трансформация содержания, коллаборативная деятельность преподавателей, студенто-центрированный дизайн занятия, формативное оценивание, рефлексивный мониторинг, институциональная поддержка и поэтапное внедрение.

Ключевые слова: японский педагогический опыт, высшее образование, дидактические условия, адаптация, Lesson Study, jugyou kenkyuu, kyouzai kenkyuu, совместное обучение, рефлексия, формативное оценивание, педагогический трансфер.

KIRISH

Global ta'lim makonida milliy oliy ta'lim tizimlarining raqobatbardoshligi ko'p jihatdan ularning xorijiy pedagogik innovatsiyalarni qanday tanlashi, ilmiy jihatdan baholashi va mahalliy sharoitga moslashtirishi bilan belgilanadi. Biroq xalqaro tajribani o'zlashtirish jarayoni oddiy "eng yaxshi amaliyot"ni bir muhitdan ikkinchisiga ko'chirishdan iborat emas. Pedagogik tajriba muayyan mamlakatning tarixiy taraqqiyoti, madaniy me'yorlari, o'qituvchi kasbining ijtimoiy maqomi, ta'limni boshqarish an'analari, o'quv dasturi tuzilishi, baholash madaniyati va ta'lim ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarga chuqur singib ketgan murakkab ijtimoiy-didaktik hodisadir. Shu sababli Yaponiyada yuqori samara bergan metod yoki tashkiliy shakl O'zbekiston oliy ta'lim muhitida aynan takrorlanganida kutilgan natijani bermasligi, hatto uning mazmuniy yadrosi tashqi rasmiyatchilik bilan almashib qolishi mumkin. Demak, asosiy ilmiy vazifa yapon pedagogik tajribasini "ko'chirish" emas, balki uning universal didaktik mexanizmlarini aniqlash, milliy muhit bilan muvofiq nuqtalarini belgilash va kontekstga sezgir adaptatsiya texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.



Yapon pedagogik madaniyatida o'qitish sifati bir martalik nazorat yoki alohida o'qituvchining individual mahorati bilan cheklanmaydi. U jamoaviy tadqiqot, rejalashtirish, kuzatish, dalillarni muhokama qilish va qayta loyihalashtirish iborat uzluksiz sikl sifatida tushuniladi. "Lesson Study" – jugyuu kenkyuu amaliyotida o'qituvchilar muayyan o'quv muammosini belgilaydi, tadqiqot darsini hamkorlikda loyihalaydi, talabalar yoki o'quvchilarning fikrlash jarayonini kuzatadi, natijalarni muhokama qiladi va keyingi pedagogik qarorlarni dalillar asosida takomillashtiradi [3; 5; 7]. Bu jarayonda dars "ko'rgazmali tadbir" emas, balki ilmiy-pedagogik izlanish obyektiga aylanadi. "Kyouzai kenkyuu" esa o'quv materiali, tushuncha, vazifa, matn, misol va talabani ehtimoliy fikrlash trayektoriyalarini chuqur o'rganishni anglatadi; shuning uchun u oddiy konspekt yozishdan farq qilib, mazmunning didaktik imkoniyatlarini ochishga yo'naltiriladi [9]. Ushbu ikki an'ana o'qituvchini tayyor metodlarni iste'mol qiluvchi emas, balki ta'lim mazmuni va amaliyotini tadqiq etuvchi professional subyekt sifatida shakllantiradi.

O'zbekiston oliy ta'limida kredit-modul tizimi, talabaga yo'naltirilgan ta'lim, mustaqil ta'lim ulushini oshirish, raqamli resurslardan foydalanish, ta'lim sifatini ichki ta'minlash va professor-o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini kuchaytirish kabi vazifalar yapon tajribasining ayrim tamoyillari bilan mazmunan uyg'unlashadi. Biroq mazkur uyg'unlik avtomatik emas. Masalan, hamkorlikda dars tahlili o'qituvchini nazorat qilish yoki reytingini belgilash vositasiga aylansa, ochiq muloqot va kasbiy ishonch yo'qoladi; talabalar faolligini kuzatish faqat davomat va javoblar soni bilan cheklansa, ularning fikrlash dinamikasi ochilmaydi; "Lesson Study" belgilangan shakldagi hujjat to'ldirish bilan almasha, uning tadqiqotchilik funksiyasi so'nadi. Shu bois adaptatsiyaning didaktik shartlari professor-o'qituvchining psixologik xavfsizligi, kafedrada hamkorlik madaniyati, vaqt resursi, metodik fasilitatsiya, kuzatuv mezonlari, ta'lim natijalari va milliy qadriyatlar bilan bog'langan yaxlit tizimda ko'rib chiqilishi kerak.

Mazkur tadqiqotda "didaktik shart" tushunchasi ma'lum pedagogik tajribani belgilangan ta'lim muhitida samarali amalga oshirishni ta'minlaydigan maqsadli, mazmuniy, protsessual, tashkiliy va baholovchi omillarning o'zaro bog'liq majmuasi sifatida talqin qilinadi. Bunda shartlar faqat infratuzilma yoki me'yoriy talablardan iborat emas; ular ta'lim ishtirokchilarining motivatsiyasi, pedagogik pozitsiyasi, muloqot usuli, o'quv materialini qayta ishlash qobiliyati, refleksiya madaniyati va dalilga asoslangan qaror qabul qilish kompetensiyasini ham qamrab oladi. Yapon tajribasini O'zbekiston oliy ta'limiga moslashtirishda didaktik shartlarni belgilash uchta metodologik muammoni hal qilishni talab etadi:

- *birinchidan*, yapon amaliyotining kontekstga bog'liq va nisbatan universal elementlarini ajratish;
- *ikkinchidan*, milliy oliy ta'limning mavjud resurslari hamda cheklovlarini real baholash;
- *uchinchidan*, adaptatsiya samarasini talabani bilim natijalari bilangina emas, balki mustaqil fikrlash, hamkorlik, refleksiya, muammoni yechish va o'qituvchining kasbiy o'rganishi kabi ko'p o'lchovli ko'rsatkichlar orqali aniqlash.

Yaponiya pedagogik tajribasi haqidagi xalqaro tadqiqotlarda uning samaradorligi ko'pincha o'qituvchilarning hamkorlikda ishlashi, darsni tadqiqot obyektiga aylantirishi va o'quvchilar fikrlashini markazga qo'yishi bilan izohlanadi. Stigler va Hibert Yaponiyada o'qitishni takomillashtirish individual "yaxshi o'qituvchi"ni izlashga emas, balki o'qitish madaniyatini jamoaviy rivojlantirishga tayanishini ko'rsatgan [3].

Lyuis "Lesson Study"ning o'qituvchi rahbarligidagi o'zgarish sifatidagi ahamiyatini, Fernandes va Yoshida esa dars rejasi, kuzatuv va muhokamaning talabalarning matematik fikrlashini o'rganishga xizmat qilishini asoslagan [4; 5].

Keyingi tadqiqotlar ushbu amaliyotni boshqa mamlakatlarga joriy etishda mazmuniy qisqarish, haddan tashqari formallashtirish va institutsional qo'llab-quvvatlash yetishmasligi kabi xavflarni ochib berdi [7; 8]. Bu holat O'zbekiston uchun ham muhim: adaptatsiya natijasi yapon atamalaridan foydalanish bilan emas, balki kafedra va auditoriyadagi real pedagogik munosabatlarning o'zgarishi bilan baholanishi lozim.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonlik olimlar tomonidan Yaponiya tajribasini milliy ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi nuqtayi nazaridan o'rganish so'nggi yillarda pedagogik transfering istiqbolli yo'nalishlaridan biriga aylandi. Mavzuga bevosita yaqin tadqiqotlar orasida O. O. Jakbarovning "Opportunities for Integrating Japanese Experience into Uzbekistan's Higher Education System" nomli maqolasi alohida ahamiyatga ega. Muallif Yaponiya oliy ta'limidagi sifatni ta'minlash, innovatsion o'qitish, universitet-sanoat hamkorligi va kadrlar tayyorlash mexanizmlarini O'zbekiston oliy ta'lim islohotlari bilan qiyoslaydi [1].

Jakbarovning yondashuvi yapon tajribasini milliy tizimga kiritishning strategik imkoniyatlarini ko'rsatishi bilan qimmatli: unda ta'lim sifati faqat auditoriya metodikasi emas, balki universitetning ilmiy, ishlab chiqarish va boshqaruv munosabatlari bilan bog'liq kompleks hodisa sifatida ko'riladi. Ayni paytda mazkur tadqiqot umumtizimiy imkoniyatlarni ochib bersa-da, konkret dars darajasidagi adaptatsiyaning didaktik shartlari – o'quv mate-



rialini qayta loyihalash, talabalar fikrlashini kuzatish, o'qituvchilarning refleksiv hamkorligi va formativ baholash mezonlarini batafsil tizimlashtirmaydi. Shu nuqta ushbu maqolaning ilmiy vazifasini aniqlashga xizmat qiladi.

A. M. Akbarovning N. A. Shakirova bilan hammualliflikdagi "Kadrlar salohiyatini innovatsion rivojlantirish modeli (Yaponiya tajribasi misolida)" tadqiqoti yapon tajribasini inson resurslarini uzluksiz rivojlantirish, tashkilot ichida o'qitish va kasbiy mas'uliyatni shakllantirish nuqtayi nazaridan tahlil qiladi^[2]. Ushbu ishda Yaponiya muvaffaqiyatining asosi texnologiyani import qilishdan ko'ra inson kapitaliga tizimli sarmoya kiritish, xodimning tashkilotda o'rganishi, rahbarning rivojlantiruvchi pozitsiyasi va jamoaviy mas'uliyat madaniyati bilan bog'lanadi. Mazkur g'oyalar oliy ta'limga tatbiq etilganda professor-o'qituvchilar malakasini bir martalik kurslar orqali emas, balki kafedra ichidagi uzluksiz kasbiy o'rganish, hamkasb darsini tadqiq etish, birgalikda material ishlab chiqish va refleksiv muloqot orqali rivojlantirish zarurligini anglatadi. Biroq Akbarov tadqiqotining markazida iqtisodiy-tashkiliy inson resurslari turgani sababli, talabaning o'quv faoliyati va dars dizayniga doir didaktik mexanizmlar maxsus ochib berilmagan.

Ikki tadqiqotning qiyosiy tahlili ular o'rtasida mazmuniy uzviylik borligini ko'rsatadi: Jakbarov makrodarajada oliy ta'lim tizimi va universitet-ishlab chiqarish munosabatlarini, Akbarov esa mezodarajada inson salohiyati va tashkilot ichidagi kasbiy rivojlanishni ustuvor qo'yadi. Ularni birlashtiruvchi nuqta – yapon tajribasining samaradorligi alohida metoddan emas, balki sifat, intizom, hamkorlik, uzluksiz takomillashtirish va inson kapitaliga yo'naltirilgan tizimdan kelib chiqishidir. Biroq oliy ta'lim auditoriyasi mikrodarajasida qanday shartlar yaratilishi, yapon yondashuvlarining qaysi elementlari saqlanishi va qaysilari milliy kontekstga qayta ishlanishi lozimligi ochiq qoladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada yapon pedagogik tajribasini O'zbekiston oliy ta'lim muhitiga moslashtirishning didaktik shartlarini aniqlash uchun o'zaro to'ldiruvchi nazariy-tahliliy metodlar majmuasidan foydalanildi. Avvalo, qiyosiy-pedagogik tahlil metodi orqali Yaponiyada shakllangan "Lesson Study", jugyou kenkyuu va kyouzai kenkyuu amaliyotlarining maqsadi, subyektlari, bosqichlari, baholash mantig'i va kasbiy rivojlanish funksiyalari O'zbekiston oliy ta'limidagi darsni rejalashtirish, kafedra metodik ishi, ichki sifat nazorati va talabaga yo'naltirilgan ta'lim talablari bilan taqqoslandi.

Qiyoslashda tashqi o'xshashliklar emas, balki har bir amaliyotni harakatga keltiruvchi ichki didaktik mexanizmlar – muammoni jamoaviy belgilash, o'quv materialini chuqur o'rganish, talabalar fikrlashini kuzatish, dalillarni talqin qilish va keyingi darsni qayta loyihalash jarayonlari asosiy birlik sifatida qabul qilindi.

Tizimli-strukturaviy tahlil yordamida adaptatsiya jarayoni maqsadli-aksiologik, mazmuniy, protsessual, tashkiliy-kollaborativ va baholovchi-refleksiv komponentlarga ajratildi hamda ularning o'zaro bog'liqligi ochib berildi. Bu usul bir shartning yetishmasligi butun mexanizm samaradorligini pasaytirishini, masalan, hamkorlik uchun vaqt ajratilmasa yoki kuzatuv mezonlari talabalarning fikrlash jarayoniga yo'naltirilmasa, "Lesson Study"ning formal tadbirga aylanib qolishini nazariy jihatdan tushuntirish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijasida yapon pedagogik tajribasini O'zbekiston oliy ta'lim muhitiga samarali moslashtirish uchun o'zaro bog'liq to'qqizta didaktik shart zarur ekani aniqlandi.

Birinchi shart – maqsadli-aksiologik muvofiqlik bo'lib, joriy etiladigan amaliyot milliy oliy ta'limning kompetensiyaviy maqsadlari, akademik halollik, shaxs qadri, hamkorlik va mas'uliyat tamoyillari bilan uyg'unlashtirilishi kerak.

Ikkinchi shart – kontekstual diagnostika: kafedra resurslari, professor-o'qituvchilarning hamkorlikka tayyorligi, fan xususiyati, talabalarning boshlang'ich tayyorgarligi, vaqt va auditoriya imkoniyatlari oldindan o'rganilmasdan turib, yapon tajribasini joriy etish ilmiy asoslangan hisoblanmaydi.

Uchinchi shart – selektiv adaptatsiya bo'lib, tashqi marosim va terminlar emas, balki talabalar o'rganishini tadqiq etish, dalilga asoslangan muhokama va uzluksiz yaxshilash kabi o'zak mexanizmlar saqlanadi; kontekstga bog'liq tashkiliy shakllar esa mahalliy ehtiyojga ko'ra qayta quriladi.

Yapon pedagogik tajribasini boshqa ta'lim muhitiga ko'chirish masalasida Akixiko Takaxashi va Tomas Makdugalning yondashuvi bilan Kristina Lim-Ratnam hamda uning hammualliflari qarashlari o'rtasida mazmunli ilmiy polemika mavjud. Takaxashi va Makdugal "Collaborative Lesson Research" konsepsiyasida "Lesson Study"ning samarasi uning asosiy komponentlarini to'liq va maqsadli saqlashga bog'liqligini ta'kidlaydi^[7]. Ularning fikricha, ko'plab mamlakatlarda amaliyot tadqiqot darsini bir marta namoyish qilish, tayyor konspektni muhokama etish yoki "ideal dars rejasi" yaratishga qisqarib ketadi. Vaholanki, haqiqiy maqsad mukammal hujjat tayyorlash emas, balki talabalarning o'rganishi haqida yangi kasbiy bilim hosil qilishdir.



Lim-Ratnam, Li, Jiang va Sudarshan esa “Lost in Adaptation?” tadqiqotida yapon amaliyotini non-yapon kontekstda aynan takrorlash ham muammoli ekanini ko'rsatadi^[8]. Ularning tahliliga ko'ra, har bir ta'lim tizimida vaqt taqsimoti, rahbarlik uslubi, o'qituvchilar o'rtasidagi ishonch, baholash bosimi va professional avtonomiya turlicha; shuning uchun “Lesson Study” mahalliy ishtirokchilar tomonidan qayta ma'nolantiriladi. Mualliflar adaptatsiyani inkor etmaydi, aksincha, uni barqaror joriy etishning sharti sifatida ko'radi, ammo o'zgarishlar ko'paygan sari amaliyotning asosiy maqsadi yo'qolib ketishi mumkinligini “adaptatsiyada yo'qolish” paradoksi bilan ifodalaydi. Demak, ularning pozitsiyasi kontekstni e'tiborsiz qoldirgan “metodologik asllik”ni tanqid qiladi va mahalliy madaniyat, resurs hamda ishtirokchilarning anglashiga mos dizaynni talab etadi.

Mazkur ikki yondashuv qarama-qarshi emas, balki adaptatsiyaning ikki xavfini ochib beradi. Takxashi va Makdugal o'zak prinsiplarning suyulib ketishidan, Lim-Ratnam va hammualliflar esa kontekstga yot shaklning majburan joriy etilishidan ogohlantiradi.

O'zbekiston oliy ta'limi uchun maqbul yechim “fidellik–moslashuv” muvozanatida ifodalanadi: o'zgarmas yadro sifatida talabalar o'rganishini jamoaviy tadqiq etish, aniq tadqiqot savoli, o'quv materialini chuqur tahlil qilish, kuzatuv dalillari va refleksiv qaror qabul qilish saqlanadi; o'zgaruvchan qobiq sifatida guruh hajmi, sikl davomiyligi, mashg'ulot turi, raqamli vosita, muhokama formati va hujjatlashtirish darajasi mahalliy sharoitga moslashtiriladi.

XULOSA

Yapon pedagogik tajribasini O'zbekiston oliy ta'lim muhitiga moslashtirish ta'lim metodlarini oddiy import qilish emas, balki ularning tarixiy-madaniy mazmuni, didaktik funksiyasi va institutsional shartlarini qayta talqin etishga asoslangan murakkab pedagogik transfer jarayonidir. Tadqiqot yapon tajribasining eng qimmatli jihati tashqi tartib-intizom yoki alohida texnologik usullarda emas, balki darsni jamoaviy tadqiqot obyekti sifatida ko'rish, o'quv materialini chuqur didaktik o'rganish, talabalar fikrlashini dalillar asosida kuzatish va o'qituvchilarning kasbiy bilimlarini hamkorlikda yaratish madaniyatida ekanini ko'rsatdi. Shu bois “Lesson Study” va kyouzai kenkyuuni milliy oliy ta'limga joriy etishda ularning nomini yoki tashqi bosqichlarini takrorlash emas, balki mazmuniy yadrosini saqlash hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jakbarov O. O. Opportunities for Integrating Japanese Experience into Uzbekistan's Higher Education System // Web of Teachers: Inderscience Research. – 2025. – Vol. 3, No. 3. – P. 319–323.
2. Акбаров А. М., Шакирова Н. А. Кадрлар салоҳиятини инновацион ривожлантириш модели (Япония тажрибаси мисолида) // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар. – 2019. – № 2 (40). – Б. 1–7.
3. Stigler J. W., Hiebert J. The Teaching Gap: Best Ideas from the World's Teachers for Improving Education in the Classroom. – New York: Free Press, 1999. – 210 p.
4. Lewis C. C. Lesson Study: A Handbook of Teacher-Led Instructional Change. – Philadelphia, PA: Research for Better Schools, 2002.
5. Fernandez C., Yoshida M. Lesson Study: A Japanese Approach to Improving Mathematics Teaching and Learning. – Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 2004. – 250 p.
6. Dudley P. Teacher Learning in Lesson Study: What Interaction-Level Discourse Analysis Revealed about How Teachers Utilised Imagination, Tacit Knowledge of Teaching and Fresh Evidence of Pupils' Learning // Teaching and Teacher Education. – 2013. – Vol. 34. – P. 107–121. – DOI: 10.1016/j.tate.2013.04.006.
7. Takahashi A., McDougal T. Collaborative Lesson Research: Maximizing the Impact of Lesson Study // ZDM – Mathematics Education. – 2016. – Vol. 48. – P. 513–526. – DOI: 10.1007/s11858-015-0752-x.
8. Lim-Ratnam C. T. L., Lee C. K. E., Jiang H., Sudarshan A. Lost in Adaptation? Issues of Adapting Japanese Lesson Study in Non-Japanese Contexts // Educational Research for Policy and Practice. – 2019. – Vol. 18, No. 3. – P. 263–278. – DOI: 10.1007/s10671-019-09247-4.
9. Shinno Y., Mizoguchi T. Theoretical Approaches to Teachers' Lesson Designs Involving the Adaptation of Mathematics Textbooks: Two Cases from Kyouzai Kenkyuu in Japan // ZDM – Mathematics Education. – 2021. – Vol. 53. – P. 1387–1402. – DOI: 10.1007/s11858-021-01269-8.
10. Ergashbaev, S. (2025). O'zbekiston sharoitida uzluksiz ta'lim tizimi orqali yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish. Объединяя студентов: международные исследования и сотрудничество между дисциплинами, 1(1), 314–316.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.